Sport mashg'ulotlarda jarohatlarning oldini olish va xavfsizlik choralari	650
Xudoyberdiyeva Elmira Botir qizi	
Задачи изучения и преподавания русского языка и литературы в общеобразовательных школах с узбекским языком обучения	654
Ахмедов Нумон	

XALQ TA'LIMI BO'LIMI RAHBARLARINING XALQARO BAHOLASH TIZIMINI O'ZBEKISTON TA'LIMIGA MOSLASHTIRISHDAGI O'RNI



Namazova Manzura Urakovna

Phd, dotsent, Shahrisabz davlat pedagogika instituti



Nodirov Dilmurod

Chiroqchi tumani 77 maktab direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq ta'limi bo'limi rahbarlarining xalqaro baholash tizimlari – xususan, PISA, TIMSS va PIRLS dasturlarini O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirishdagi o'rni tahlil etilgan. Mualliflar rahbarlarning metodik yetakchilik, ichki baholash tizimlarini shakllantirish, o'qituvchilarni tayyorlash va indikatorlar asosida tahliliy monitoring olib borishdagi amaliy faoliyatiga alohida e'tibor qaratgan. Maqolada mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqilgan. Xalqaro tajriba va mahalliy sharoit uyg'unligi asosida samarali moslashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro baholash tizimi; xalq ta'limi bo'limi; ta'lim sifati; PISA; TIMSS; PIRLS; ta'limni boshqarish; moslash-tirish strategiyasi; rahbarlik salohiyati; funksional savodxonlik; monitoring; tahlil.

Abstract: This article analyzes the role of local public education department leaders in adapting international assessment systems – particularly the PISA, TIMSS, and PIRLS programs – to the educational context of Uzbekistan. The authors highlight the leaders' practical contributions to methodological leadership, the development of internal evaluation systems, teacher training, and indicator-based analytical monitoring. The study also examines existing challenges and proposes effective solutions. It substantiates the necessity of developing efficient adaptation mechanisms based on the integration of international experience with local educational realities.

Key words: international assessment systems; regional education departments; quality of education; PISA; TIMSS; PIRLS; educational management; adaptation strategies; leadership capacity; functional literacy; monitoring; evaluation.

Аннотация: В статье рассмотрена роль руководителей отделов народного образования в адаптации между-народных систем оценки – в частности, программ PISA, TIMSS и PIRLS – к образовательной системе Узбеки-стана. Авторы уделяют особое внимание практической деятельности руководителей в области методического лидерства, формирования внутренних систем оценивания, подготовки педагогов и аналитического мониторинга на основе индикаторов. В работе проанализированы существующие проблемы и предложены пути их решения. Обоснована необходимость разработки эффективных механизмов адаптации на основе синтеза международного опыта и местных условий.

Ключевые слова: международные системы оценки; отделы народного образования; качество образования; PISA; TIMSS; PIRLS; управление образованием; стратегии адаптации; лидерский потенциал; функциональная грамотность; мониторинг; анализ.



KIRISH

O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda xalqaro baholash dasturlariga – PISA, TIMSS va PIRLS – bo'lgan e'tibor izchil ortib bormoqda. Ushbu baholash dasturlari o'quvchilarning funksional savodxonligi, tanqidiy fikrlash qobiliyati hamda muammolarni hal qilish ko'nikmalarini aniqlash imkonini beradi. Xalq ta'limi bo'limi rahbarlari bu jarayonlarda boshqaruvchilik va metodik liderlik vazifalarini samarali bajarib, ta'lim sifatini oshirishga bevosita hissa qo'shmoqda. Shu bois xalqaro baholash mezonlarini milliy ta'lim tizimiga uyg'unlashtirish bugungi kunda dolzarb va istiqbolli vazifalardan biri hisoblanadi.

PISA, TIMSS va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki hayotiy vaziyatlarda ularni qo'llay olish qobiliyatini ham o'lchashga qaratilgan. O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu dasturlar bosqichma-bosqich sinov tariqasida joriy etilmoqda va ularning samarali natija berishi uchun xalq ta'limi bo'limi rahbarlarining yetakchi roli alohida ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda xalqaro baholash tizimlarini milliy ta'lim tizimiga moslashtirish masalasi ko'plab olimlar va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Axmedova N. (2021) o'z tadqiqotida PISA, TIMSS va PIRLS dasturlarining O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llanilish mexanizmlarini tahlil qilib, ularni o'quv dasturlariga chuqur integratsiya qilish zarurligini ilmiy asosda ta'kidlaydi. Rasulov R. (2022) esa PISA baholov tizimining metodik asoslarini yoritib, o'quvchilarda real hayotiy muammolarni hal etish salohiyatini rivojlantirishning ahamiyatiga urg'u beradi. Smith J. (2019) o'z tadqiqotida xalqaro tajribalarni qiyosiy tahlil qilib, rahbarlik salohiyatining baholash tizimlarini milliy sharoitga moslashtirish jarayonidagi muhim o'rni ko'rsatadi. Shu bilan birga, UNICEF (2023) hisobotida Markaziy Osiyoda funksional savodxonlikni oshirish, rahbarlar va o'qituvchilar malakasini takomillashtirish ta'lim sifatini yuksaltirishning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahliliy va taqqoslama metodlar qo'llanildi. Xalqaro baholash tizimlarining metodologik asoslari chuqur o'rganilib, ularni O'zbekiston ta'lim tizimiga samarali moslashtirish yo'llari ilmiy jihatdan tahlil etildi. Shu bilan birga, xalq ta'limi bo'limi rahbarlarining kasbiy malakasi, boshqaruv salohiyati va faoliyat yo'nalishlari amaliy jihatdan o'rganildi hamda ularning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro baholash mezonlarini milliy ta'lim tizimiga samarali moslashtirish uchun rahbarlarning kasbiy malakasini oshirish, xalqaro indikatorlarga asoslangan tahlil va monitoring mexanizmlarini joriy etish hamda metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim hududlarda bu borada ijobiy tajribalar shakllanib, ta'lim sifatini oshirishda sezilarli natijalarga erishilmoqda. Biroq mazkur jarayonni yanada takomillashtirish uchun tizimli yondashuvni kuchaytirish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalq ta'limi bo'limi rahbarlari tomonidan xalqaro baholash mezonlariga mos ish yuritish madaniyatining shakllanishi ta'lim sifatini izchil yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Bu yo'nalishda mahalliy kontekst, o'quvchilar ehtiyojlari va mavjud resurslarni hisobga olgan holda moslashtirish strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Institutsional tayyorgarlik – bu ta'lim tizimining ichki strukturasi, tashkiliy imkoniyatlari va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir. Mazkur jarayon ta'lim siyosatini qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar va markazlar faoliyati, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish dasturlari, ta'lim jarayonini monitoring qilish va baholash tizimlari hamda innovatsion va raqamli texnologiyalarni tatbiq etishni o'z ichiga oladi.

Institutsional tayyorgarlikda metodik markazlar alohida o'rin tutadi. Ular o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish, o'quv dasturlari va metodik materiallarni ishlab chiqish hamda hududiy ta'lim muassasalariga ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Ta'lim inspeksiyasi va Pedagog kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash instituti huzuridagi metodik xizmat markazlari ushbu vazifalarni izchil amalga oshirib kelmoqda.

Shuningdek, institutsional tayyorgarlik doirasida indikator monitoring guruhlarining faoliyati ham muhim o'rin egallaydi. Mazkur guruhlar ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlarini kuzatish, o'quvchilar bilim darajasini aniqlash, ta'lim muassasalari faoliyatini baholash va tahliliy asosda takliflar ishlab chiqish orqali ta'lim siyosatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi axborot bazasini shakllantiradi. Monitoring indikatorlariga o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, funksional bilim ko'rsatkichlari, o'qituvchilar malakasi va faoliyat samaradorligi kabi mezonlar kiradi.



Institutsional tayyorgarlikning yana bir muhim yo'nalishi – funksional savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurslar tashkil etilishidir. Ushbu kurslar nafaqat o'qish va yozish, balki mantiqiy fikrlash, muammo yechish, raqamli hamda moliyaviy savodxonlik, axborotni tahlil qilish va undan samarali foydalanish kabi amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. O'zbekistonda 2020-yildan boshlab PISA (Xalqaro o'quvchilar bilimini baholash dasturi)ga tayyorgarlik doirasida funksional savodxonlik kurslari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Institutsional tayyorgarlikning samarali yo'lga qo'yilishi ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchi va o'quvchilarning zamonaviy bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash bilan birga, davlat ta'lim strategiyalarini izchil amalga oshirish uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinmoqda, bu esa institutsional tayyorgarlikning strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda. Erishilgan yutuqlar ta'lim jarayonining samaradorligini tasdiqlab, mavjud yo'nalishlarda yanada chuqurlashtirilgan islohotlarni amalga oshirish uchun mustahkam asos yaratmoqda.

2019–2025-yillarda amalga oshirilayotgan Ta'lim sifatini baholash va rivojlantirish milliy strategiyasi doirasida O'zbekistonda ta'lim tizimining institutsional asoslarini mustahkamlash borasida qator muhim tashabbuslar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, hududiy darajada metodik xizmatlarni tashkil etish, ta'lim sifatini baholovchi indikator tizimlarini joriy etish, shuningdek, funksional savodxonlikni shakllantirishga qaratilgan kurslar orqali ta'lim sifatini oshirish maqsad qilingan.

Har bir viloyat va tuman miqyosida metodik markazlar faoliyati yo'lga qo'yilib, o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish hamda metodik yordam ko'rsatish yo'nalishida tizimli ishlar olib borilmoqda. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzurida tashkil etilgan Metodik xizmatlar bosh markazi va "Pedagogik innovatsiyalar markazi" tomonidan o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari, yangi o'quv-metodik materiallar, videodarslar, elektron platformalar va metodik qo'llanmalar ishlab chiqilmoqda. Mazkur tashabbuslar ta'lim sohasidagi raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlash va innovatsion yondashuvni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

2024-yil bahorida maktablar reytingini e'lon qilish orqali ta'lim muassasalarining faoliyatini baholash tizimi bosqichma-bosqich yo'lga qo'yildi. Bu jarayon indikator monitoring guruhlarining faoliyatini yanada tizimlash-tirish, tahliliy yondashuvni mustahkamlash hamda ta'lim muassasalarining natijadorligini oshirish imkonini yaratdi. Maktablar, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari uchun indikatorlar ishlab chiqilib, "Elektron jurnal", "Dars jadvali" va "Ta'lim sifati portal" kabi platformalar monitoringning asosiy vositalariga aylangan. Shu bilan birga, PISA, PIRLS va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ham indikatorlar asosida tizimli ravishda olib borilmoqda.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, hududiy metodik markazlarning faoliyati tobora takomillashib bormoqda. Ularning faoliyati markazlashgan boshqaruvdan bosqichma-bosqich mustaqil yondashuv sari yo'naltirilmoqda, bu esa joylardagi metodik yordam sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, indikator monitoring guruhlarini faoliyatining hujjatlar bilan cheklanib qolmasligi, balki tahliliy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqishga yo'naltirilishi kuzatilmoqda. Bu esa ta'lim tizimida analitik madaniyatni shakllantirishga zamin yaratmoqda.

Funksional savodxonlik kurslari yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning ko'lami yildan-yilga kengayib bormoqda. Ba'zi hududiy maktablarda tanqidiy fikrlash, muammo yechish va raqamli savodxonlikka oid mashg'ulotlar muntazam tashkil etilmoqda. "Bilimdon" test platformasi kabi interfaol vositalar joriy etilib, o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanmoqda. Natijada funksional savodxonlik tushunchasi tobora kengroq anglanib, an'anaviy yodlashga asoslangan usullar o'rnini faol, tahliliy va kreativ o'qitish metodlari egallab bormoqda. Ayniqsa, chekka hududlardagi ta'lim muassasalarida ham ushbu jarayonni bosqichma-bosqich kengaytirish istiqbollari sezilarli darajada kuchaymoqda (1-jadval).

1-jadval

Yo'nalish	Yutuqlar	Muammolar
Metodik markazlar	Kadrlar tayyorlanmoqda, zamonaviy vositalar joriy etilmoqda	Joylarda faoliyat samaradorligi past
Monitoring guruhlar	Reytinglar, PISA tayyorgarligi indikatorli bo'ldi	Real tahlil o'rniga formalizm
Funksional savodxonlik	Kurslar boshlanmoqda, ayrim maktablarda faoliyat bor	Tushuncha va amaliyot o'rtasida tafovut katta

O'zbekiston Respublikasi ilk bor 2022-yilda Xalqaro o'quvchilar bilimini baholash dasturi – "PISA (Programme for International Student Assessment)"da ishtirok etdi. Ushbu dastur 15 yoshli o'quvchilarning matematika, o'qish va tabiiy fanlar bo'yicha funksional savodxonlik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. PISA



natijalari xalqaro miqyosda ta'lim siyosatini shakllantirishda asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida e'tirof etiladi. O'zbekistonning 2022-yilgi PISA natijalari mamlakat ta'lim tizimining rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash uchun muhim tahliliy asos bo'lib xizmat qilgan va 2025-yilgi baholovlarga tayyorgarlik jarayonini tizimli hamda chuqur-lashtirilgan tarzda boshlashga turtki bo'lgan.

Mazkur tayyorgarlik jarayonida muallimlar va ta'lim muassasalari rahbarlarini qayta tayyorlash, funksional savodxonlikni shakllantirish, test tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda fanlararo va hayotiy kontekstga asoslangan o'qitish yondashuvlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

PISAgaga tayyorgarlik doirasida o'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etilib, ularning funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik salohiyati izchil oshirilmoqda. Kurslar orqali pedagoglar kontekstual savollar tuzish, matn tahlili, tanqidiy fikrlashga asoslangan topshiriqlar ishlab chiqish va test materiallari bilan samarali ishlash ko'nikmalarini egallamoqdalar.

2023–2024-yillar davomida respublika bo'yicha 50 mingdan ortiq pedagog “PISA asoslari”, “Savol va matn tahlili” hamda “Funksional testlar ishlab chiqish” kabi modullar asosida o'qitildi. Kurslar Respublika ta'lim markazi, Pedagogik innovatsiyalar markazi va Ipak yo'li universiteti bazasida tashkil etilib, moliyaviy hamda texnik yordam Jahon banki va UNICEF tomonidan taqdim etildi.

O'qituvchilarni PISA formatidagi topshiriqlarni ishlab chiqishga tayyorlash maqsadida Respublika Ta'lim Markazi tomonidan 2023-yilda “PISA tipidagi topshiriqlar banki” shakllantirildi. Shuningdek, “Fanlar kesimida PISA ko'nikmalarini shakllantirish” nomli metodik qo'llanma nashr qilinib, 150 dan ortiq test namunasi ishlab chiqildi va sinovdan muvaffaqiyatli o'tkazildi. Ushbu tashabbuslar o'qituvchilarni real hayotga asoslangan, bosqichma-bosqich yechimlarni talab qiluvchi savollar tuzishga, baholash mezonlarini to'g'ri qo'llashga hamda o'quvchilarning chuqur tushunishga asoslangan bilimlarini aniqlashga yo'naltirilgan.

Ta'lim tizimida rahbarlik qiluvchi shaxslarning ham PISA konsepsiyasini chuqur anglab, uni ichki monitoring tizimlariga integratsiya qilishi muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda, 2024-yildan boshlab “PISA for Leaders” nomli treninglar yo'lga qo'yildi. 3000 dan ortiq maktab rahbari “Xalqaro indikatorlar asosida baholash”, “Ichki monitoring tizimlari” va “Metodik yetakchilik” mavzulari bo'yicha malaka oshirdi. Treninglar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Ta'lim sifatini baholash agentligi, shuningdek, Vengriya va Singapur ekspertlari hamkorligida amalga oshirilmogda.

PISA baholovlarining asosiy tamoyillaridan biri – o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini real hayotdagi muammolarni hal etish jarayonida qo'llay olish salohiyatini aniqlashdir. Shu bois, fanlararo va hayotiy kontekstga asoslangan o'qitish yondashuvi ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy va istiqbolli yo'nalishi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda (2-jadval).

2-jadval: O'zbekistondagi real tashabbuslar va dalillar

Tashkilot	Tashabbus	Davr
XTV, RTM	“STEAM” maktablar loyihasi	2022-yildan
UNICEF, World Bank	“Integratsiyalashgan o'quv modul” kurslari	2023-yildan
Pedagogik innovatsiyalar markazi	“Fanlararo yondashuv asosida o'qitish” seminar-treninglari	2024

2023-yilda 4500 dan ortiq o'qituvchi “Fanlararo yondashuv asosida dars loyihalash” kurslarini muvaffaqiyatli tamomladi. O'zbekistonning 12 ta tajriba maktabida hayotiy topshiriqlarga asoslangan o'qitish metodikasi sinovdan o'tkazildi. 2024-yil dekabr holatiga ko'ra, STEAM yo'nalishidagi maktablarning 60 foizida fanlararo loyihalar amalda keng qo'llanilmoqda.

Xalqaro baholash tizimlarini milliy ta'lim tizimiga moslashtirish jarayoni O'zbekiston ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, PISA (Programme for International Student Assessment), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) kabi xalqaro baholash dasturlarining mezonlari mamlakatimizda bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ushbu jarayonda xalq ta'limi bo'limi rahbarlari metodik, tashkiliy va monitoring faoliyatining markaziy subyekti sifatida muhim rol o'ynamoqda.

Masalan, Samarqand viloyatida 2023–2024 o'quv yillarida o'tkazilgan monitoring natijalari shuni ko'rsatdiki, PISA talablari asosida tayyorlangan o'quv topshiriqlari o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishda sezilarli samara berdi. Ushbu natijalar xalqaro standartlarning milliy ta'lim mazmuniga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvining amaliy ifodasidir. Rahbarlar tomonidan tashkil etilgan metodik seminarlar, ustoz-shogird tizimidagi mentorlik dasturlari hamda malaka oshirish kurslari pedagoglar faoliyatini zamonaviy baholash yondashuvlariga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalq ta'limi bo'limi rahbarlarining faoliyati faqat tashkiliy nazorat bilan cheklanmay, balki ta'lim sifatini baholashda tahliliy yondashuvni shakllantirishga qaratilgan. Ular xalqaro baholash mezonlarini milliy o'quv dasturlariga uyg'unlashtirish jarayonida o'qituvchilarning kasbiy refleksiya, diagnostik tahlil ko'nikmalari va differensial yondashuvini rivojlantirishga e'tibor qaratmoqda.

Masalan, Andijon viloyatida xalq ta'limi bo'limi tomonidan o'tkazilgan "O'qish savodxonligini baholash" loyihasi doirasida xalqaro PIRLS metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan savollar va matn tahlili topshiriqlari o'qituvchilarning matnni tushunish darajasini aniqlashga xizmat qildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, xalqaro standartlarga asoslangan savol tuzilmalari mahalliy kontekstga moslashtirilganda, ya'ni o'qituvchilarning madaniy va lingvistik xususiyatlari hisobga olinganda, baholashning aniqligi sezilarli darajada oshadi. Ushbu tajriba boshqa viloyatlarda ham muvaffaqiyatli joriy etilmoqda.

Xalq ta'limi bo'limi rahbarlarining xalqaro baholash tizimlarini joriy etishdagi eng muhim jihatlaridan biri – pedagogik tahlil madaniyatini shakllantirishdir. Rahbarlar o'qituvchilar uchun baholash natijalariga asoslangan o'zaro tajriba almashuv sessiyalarini tashkil etish orqali refleksiv tahlil jarayonlarini yo'lga qo'yimoqda. Natijada o'qituvchilar o'z faoliyatining kuchli va takomillashtirishni talab etuvchi jihatlarini aniqlab, o'quv jarayonini yanada samarali qilish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro baholash tizimlarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirishda xalq ta'limi bo'limi rahbarlari tahliliy hisobotlar tayyorlash, statistik ma'lumotlar bazasini yaratish va o'quv dasturlarini baholash mezonlari bilan uyg'unlashtirish yo'nalishlarida faol ish olib bormoqda. Masalan, Xorazm viloyatida o'tkazilgan eksperimental sinovlar natijasida xalqaro baholashning "reading literacy" komponenti bo'yicha o'qituvchilarning o'rtacha natijalari 12 foizga oshgani qayd etilgan. Ushbu natija rahbarlar tomonidan ishlab chiqilgan adaptatsion metodik tavsiyalarning samaradorligini amalda tasdiqlaydi.

Tahliliy nuqtai nazardan qaraganda, xalqaro baholash tizimlarini milliy ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilishda rahbarlarning strategik fikrlashi, innovatsion qarorlar qabul qilish layoqati va pedagogik diagnostika bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, so'nggi yillarda rahbarlar uchun o'tkazilayotgan "Educational Leadership" va "Data-driven Management" kabi xalqaro treninglar ularning boshqaruv va tahliliy kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fanlararo va hayotiy masalalar asosidagi o'qitish zamonaviy ta'lim tizimining strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv O'zbekiston ta'lim siyosatida izchil amalga oshirilayotgan islohotlar orqali boshlangan bo'lib, hozirda uning metodik va amaliy jihatlarini bosqichma-bosqich takomillashtirib bormoqda. Amaliy natijadorlikni yanada oshirish uchun o'quv dasturlarini xalqaro mezonlarga moslashtirish, o'qituvchilarni kasbiy qayta tayyorlash tizimini kuchaytirish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Mazkur yondashuv nafaqat xalqaro baholash tizimlarining talablariga to'liq mos keladi, balki ijodiy fikrlovchi, tanqidiy tahlil qila oladigan va hayotiy muammolarga amaliy yechim topishga qodir bo'lgan yangi avlodni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim jarayonining sifatini oshirish bilan birga, o'qituvchilarning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni mustaqil fikrlash va mas'uliyatli qaror qabul qilishga yo'naltirish imkonini beradi.

Shu tarzda yo'lga qo'yilgan fanlararo va hayotiy yondashuv ta'lim tizimini real hayotga yaqinlashtiruvchi, integrativ va funksional model sari olib boradi. Natijada ta'lim jarayoni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos, yangicha fikrlovchi va innovatsion tafakkurga ega mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiluvchi mustahkam poydevorga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedova N. Ta'lim tizimida xalqaro baholash tizimlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 198 b.
2. Karimov A. Metodik xizmat faoliyati va innovatsiyalar. – Samarqand: Zarafshon, 2020. – 164 b.
3. Rasulov R. PISA baholov tizimi: Metodik asoslar va tahlil. – Toshkent: Ilm ziyo, 2022. – 213 b.
4. Smith J. International Assessment Systems in Education. – London: Oxford University Press, 2019. – 276 p.
5. UNICEF. Functional Literacy in Central Asia. – Geneva: UNICEF Publications, 2023. – 148 p.
6. Иванова Т. Оценка качества образования: международный опыт. – Москва: Просвещение, 2020. – 240 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.